

INSULIN PREPARATINING ORGANIZMDAGI ROLI

Zulfiqarova Manzura Yamin qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti talabasi

Hakimova Asilabonu Ikrom qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti 3-kurs

Boyirova Dilsora Bobomurod qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti

4- kurs talabasi

Tadqiqot maqsadi: Insulin preparatining ishlatilish holatlari va ularning oganizmdagi nojo'ya ta'sini o'rganish.

Tadqiqot materiallari va metodlari: 1-tipli qandli diabetga chalingan bemorlarda qo'llanilib, bemorlarni kuzatish va ularning klinik-labarator tekshiruv natijalarini taqqoslash usullaridan foydalangan holda ushbu tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Insulin preparatini plazma oqsillari bilan bog'lanishi yuqori (96%). Insulin preparatlari parenteral yo'l bilan kiritilganda qon oqimiga asta sekin so'riladi (insulin dozasining 50% so'rilish uchun vaqt), hamda limfa transportida ham ishtirok etadi. Ularning so'rilishi va ta'sirining yuzaga chiqishi tananing qaysi sohasidagi teri ostiga kiritilishga va shu sohadagi qon oqimining farqlariga bog'liq. Insulin odatda oshqozon osti bezi Langergans orolchasining betta hujayralaridan ishlab chiqariladigan ikki zanjirli polipeptiddir. Inson va ko'pgina hayvonlar organizmi insulin sintezlash xususiyatiga ega bo'lib, uglevodlar almashinuviga ta'sir ko'rsatadi, qonda glukoza-6 fosfatga aylantiradi va uning hujayralar, to'qimalarga o'tishini, o'zlashtirilishini, glikogenga aylanishini amalga oshiradi, qonda va siydikda glukoza miqdorini me'yorlashtiradi, tashnalik va diurezni kamaytiradi, glukoza almashinuvini nazorat qilib turadi. Insulin qon oqimiga (garmon sifatida), qonda glukoza miqdori oshishiga javoban ishlab chiqariladi. U farmatsevtika shaklida ham mavjud. Barcha shakllari glukoza zahira holatda muskul, jigar va yog' to'qimasida saqlaydi.

Muayyan preparatni qo'llash usuli va dozalash rejimi uning chiqarilish shakliga va boshqa omillarga bog'liq. Optimal dozalash rejimi shifokor tomonidan belgilanadi. Muayyan preparatning dozalash shakliga, foydalanish ko'rsatmalariga va dozalash rejimiga muvofiqligiga qat'iy rioya qilish kerak. Ko'rsatgichlar kasallikning kechishiga va bemorga ta'sir qiluvchi ikkilamchi omillarga qarab farq qiladi. Insulinning hozirda

teri ostiga qo'llaniladigan in'eksiya ko'rinishlari keng tarqalgan bo'lib , 1ml preparatda 40 IU va 1 ml preparatda 100 IU miqdorda ishlab chiqariladigan iyeksiyasi ko'p qo'llaniladi. 1IU insulin qondagi uglevodlar darajasini 2,2 mmol/l ga kamaytirib beradi. 1 birlik 1 kg tana vazniga maksimal chegara hisoblanadi.1 martada 40 IU dan ko'p bo'lmagan doza va kunlik chegara 70-80 IU gachada qabul qilish tavsiya etiladi.Qisqa muddatli insulinni kunlik dozasini 3 ga bo'lib 3 mahal ovqatdan oldin in'eksiya qilinsa,uzoq muddatli insulin esa kunlik dozani 2 ga bo'lib 2 marta ertalab va kechqurun in'eksiya qilinadi.Garmonning ko'p miqdorda noto'g'ri hisoblangan dozasi qonda glukoza darajasini maksimal kamaytirib,bir qancha yon ta'sirlarni keltirib chiqaradi.1-bemor hushini yo'qotishi:qonda glukoza kamayish ketishi natijasida ;2- gipoglikemik komaga tushishi:nerv sistemasi zararlanishiga olib kelishi mumkin.Ushbu holatlarni oldini olish uchun bemorlar glukometr-qondagi shakar miqdorini aniqlab beruvchi asbobdan foydalanishlari lozim.Organizmga insulinning yuqori dozasi; 3-“Insulin rezistentligi”ni keltirib chiqarishi mumkin.Bu holat endogen yoki ekzogen insulinga metabolik javobning buzilishi va glukoza konsentratsiyasi uchun fiziologik qiymatlarga nisbatan qon plazmasidagi insulin konsentratsiyasining oshishiga olib keladi.Ushbu konsentratsiya insulinning barcha fiziologik ta'siriga ,uning oqsillarga,yog' almashinuviga, qon tomir endoteliysining holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. 4- oshqozon osti bezining ish faoliyati susayishi;5-hujayralarning insulinga nisbatan sezgirligini yo'qolishi natijasida 2-tip qandli diabetga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot natijalari: insulin preparati farmakokinetikasi ,farmakodinamikasi,tasir davomiyligi,ko'rsatmalar va qo'llanganda bemordagi o'zgarishlar haqida yozildi.

Xulosa: O'tkazilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki,insulin preparati insulinga bog'liq bo'lgan 1-tipli qandli diabetga keng miqyosda qo'llaniladi.Insulinning ishlab chiqariladigan har qanday shaklini qo'llash tajribali mutaxassislarning ko'rsatmalariga asosan qabul qilinishi va doimiy nazorat ostida turishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.S Azizova – farmakologiya „Oqsil va polipeptid unumli garmonal moddalar” 293-297 betlar.Toshkent „Abu Ali Ibn Sino” 2000.
2. Klinik endokrinologiya „Спутник Врача” 263-270 betlar Питер 2002.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005